



GIYOHVANDLIK – ASR VABOSI: SABABLARI VA OQIBATLARI TAHLILI

Iskandarov Xushmamat Qalandarovich

Surxandaryo viloyati IIB huzuridagi

Tergov boshqarmasi O'MIB

E-mail: xushmamatisiskandarov1986@mail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8401604>

ARTICLE INFO

Received: 24th September 2023

Accepted: 29th September 2023

Online: 30th September 2023

KEY WORDS

Narkotik moddalar, giyohvandlik, alkogol, kokain, narkomaniya.

ABSTRACT

Butun dunyoda giyohvandlar sonining ortib borayotgani, xususan, ayni paytda ko'plab yoshlar va o'rta yoshlilarni o'z domiga tobora tortayotgani giyoxvandlikni XXI-asr vabosi sifatida e'tirof etilishiga asosiy omil bo'ldi. Ushbu maqolada giyohvand moddalarning insonga ta'siri keltirib chiqaradigan faktorlarga, sabablar va oqibatlar tahliliga to'xtalib o'tilgan.

Giyohvandlik – turli xil giyoh moddalari ya'ni, narkotiklar ta'siriga odam organizmining o'rganib qolishi natijasida yuzaga keladigan og'ir kasallikdir. Giyohvandlikning xalqaro atamasi “narkomaniya” deyilib, bu so'z yunoncha «narke» — karaxtlik, harakatsizlik, «maniya» – aqldan ozish ma'nosini anglatadi.

Chunonchi, narkotik moddani qabul qilgan odam karaxt bo'lib, harakatsizlanib fikrlash, aqliy faoliyat qobiliyatlarini yo'qotadi. Odam organizmining biologik xususiyatlaridan biri shundan iboratki, u ba'zi moddalarni ketma-ket, bir necha marta qabul qilishi natijasida ularning ta'siriga o'rganib qoladi. Oqibatda, u mazkur moddani muntazam ravishda qabul qilib turishga intiladi, bu moddani qabul qilmagan paytda o'zini yomon his etadi. Buning oqibatida odamda giyohvandlik (narkomaniya) kasalligi vujudga keladi. Shuningdek, spirtli ichimliklarga o'rganib qolish tufayli piyonistalik (alkogolizm), tamaki (sigaret)ga, nosga o'rganib qolish natijasida kashandalik holatlari yuzaga keladi.

XX asrning oxirgi choragida avj olgan giyohvandlik XXI-asrning vabosiga aylanib borayotgani birlashgan millatlar tashkilotining 1998 yilning iyun oyidagi sessiyasida e'tirof etildi va bu ijtimoiy illatga qarshi kurashni kuchaytirish bo'yicha qaror qabul qilindi. Shu bois hozirgi kunda jahon mamlakatlari, jumladan O'zbekiston Respublikasi keng jamoatchiligi oldiga qo'yilgan eng dolzarb muammolardan biri giyohvandlikning oldini olishdan iboratdir.

Narkotik qabul qilgan paytda odamda kayf qilish holati vujudga keladi. Bu holat ikki xil belgilar bilan namoyon bo'ladi:

1. Kayfning qo'zg'aluvchanlik turi.
2. Kayfning bo'shshuvchanlik turi.

Giyohvandlik kasalligi quyidagi 3 davrda kechadi: Birinchi davr - odam organizmi reaktivligining o'zgarishi, ya'ni odamning narkotik moddaga moslashishi bilan xarakterlanadi. Giyohvandlikning boshlanish davrida odam narkotik modda qabul qilganida kayfiyati oshgandek, yaxshi dam olgandek, hordiq chiqargandek bo'ladi. Shuning uchun kundan-kunga



odam organizmining narkotikka moslashuvi oshib boradi. O`zi belgilagan vaqtda narkotikni qabul qilishga intiladi. Birinchi davrda zarur chora-tadbirlar yordamida odamni giyohvandlik kasalligidan davolash ya`ni qutqarish mumkin. Ikkinchi davr - giyohvandning narkotikka ruhiy bog`lanishi, ya`ni ruhiy muteligining yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda giyohvand organizmining narkotikka o`rganib-moslashib qolishi birinchi davrga nisbatan yanada kuchayadi. Narkotik qabul qilganida bemorning kayfiyati vaqtincha yaxshilanadi.

Qabul qilish muddati kechiksa kayfiyati buziladi, dunyo uning ko`ziga torayib qolgandek tuyuladi. Bu davrda giyohvandlik kasalligiga xos ruhiy buzilish belgilari paydo bo`ladi. Bemor narkotik qabul qilganida o`zini tetik, kayfiyati yuqori, bardam his etadi, kuchi oshadi, ish qobiliyati yaxshilanadi. Narkotikni qabul qilish muddati kechiksa giyohvandning ruhiyati buziladi, kayfiyati yomonlashadi. ish qobiliyati yo`qoladi. Shuning uchun u har qanday yo`l bilan bo`lsa ham narkotik topib. uni qabul qilish uchun barcha imkoniyatini safarbar qiladi. Chunki narkotik giyohvand uchun hayotiy zaruriyatga aylanadi. U narkotik topish va qabul qilish uchun, or-nomusi, vijdonidan voz kechadi.

VOZ (Halqaro sog`likni saqlash tashkiloti) 1991 yil giyohvand moddalar toifasiga quyidagilarni kiritdi:

1. Alkogol – barbiturat moddalar tipi: (etil spirti, barbituratlar, sedativ - meprobronat, xloralgid va boshqalar).

2. Amfetamin tipidagi moddalar:(anfetamin,fenmetrazin).

3. Kannabis tipidagi moddalar:(marixuana, gashish).

4. Kokain tipidagi: (kokain, koka barglari).

5. Gallyutsinogen moddalar: (LSD, meskalin).

6. Kata tipidagi moddalar.

7. Opiada tipidagi: (morfin, heroin, kofein, metdon).

8. Efir suyukliklari tipidagi moddalar: (toluol, atseton, tetroxlormetan).

Yuqorida ko`rsatib o`tilgan moddalarni hammasi (efir suyukligidan tashqari) davolash maqsadida ishlatiladi, ammo ularga ko`nikib, o`rganib qolish paydo bo`ladi. VOZ eksperimentlari shuni aniqladiki, yuqorida ko`rsatib o`tilgan giyoxvand moddalarni iste`mol qilishga qarab giyoxvand yoki toksikomaniyaga ajratiladi.

Ba`zi bir giyohvand moddalar tibbiyot amaliyotida ishlatiladi, chunki ular og`rik qoldiruvchi xususiyatga ega. Bu moddalarni iste`mol qilinishi faqat shifokor tomonidan belgilanadi. Giyoxvand moddalar organizmga tushishi bilan MNS ga ta`sir ko`rsatadi va eyforiya xolatini keltirib chikaradi. Buning natijasida aniqlik yo`qoladi, o`ylash qobiliyati susayadi, harakat koordinatasi buziladi. Giyoxvand moddalarning eng xavfli oqibatlaridan biri ularga o`rganib qolishdir. Ularga o`rganib qolishlik ba`zi bir kasalliklarni davolash mobaynida ham sodir bo`ladi. Ular

Giyoxvandlar orasida eng keng tarkalgan kasalliklardan biri OITS dir (SPID). Bu kasallikni ular orasida ko`p tarqalganligi sababi, ularning bitta shprintsdan bir – birini venasiga narkotik yuborishidir. OITS- o`ta xavfli kasallik hisoblanadi, uni hozirgi kungacha davosi aniqlanmagan. OITS ning oxiri o`lim fojiasi ko`tadi. Ming afsuslar bulsinki, bu kasallik ayniqsa yoshlar orasida tarqalishi hammani taajubga solmoqda. Keyingi paytda giyoxvandlik bilan toksikomaniya rivojlanib bormoqda.



Bugungi kunga kelib giyohvandlar ko'payib bormoqda, shulardan 60 % o'spirin – yoshlar tashkil etishi, albatta achinarli holdir. Giyoxvandlar jamiyat uchun ham xavfli hisoblanadi, chunki ular o'zlariga yaqin bo'lgan insonlarini shunga jalb etadilar. Giyoxvand moddalarni qabul qiluvchilar 4-5 yil umr ko'radilar.

Keyingi paytlarda yoshlar orasida toksikomaniya xastaligi keng tarqalmoqda. Ular har xil ximiyaviy vositalarni (atseton, benzol, toluol va boshqalar)ni nafas yo'li orqali xidlab, o'zlarida eyforiya xolati, ya'ni kayf xolatini chaqirishmoqda. Lekin oradan 3-4 oy vaqt o'tishi bilan ularda har xil o'zgarishlar kuzatilmoqda: aqliy hamda jismoniy ish faoliyatini susayishi, ruhiy holatini buzilishi, ko'p uyqu holati kuzatiladi. Nafas yo'llarida har xil surunkali kasalliklar rivojlanadi.

Toksikomanlarning asosiy iste'mol vositalari bu tinchlantiruvchi moddalar va ba'zi bir toksik ximiyaviy vositalaridir. Ularni iste'mol qilish natijasida insonlar o'zgaradi, eyforiya xolatini chaqirishdir yoki oddiy so'z bilan aytganda kayf qilishdir. Ba'zi bir xolatlarda organizmni zaharlanishi undan so'ng o'lim xolatlari ham kuzatilmoqda.

References:

1. Jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o'quvchilarni aniqlash va ularni tarbiyalash. T.: "Kamalak" .2017. 128 b
2. Xolmatova M., Muravyev N. Yoshlar oilaviy hayot bo'sag'asida.-T.: O'zbekiston, 2000
3. Социальные причины девиантного поведения девочек-подростков в условиях трансформации российского общества. Диссертация и автореферата по ВАК РФ 22.00.04, кандидат социологических наук Мухаммадеева, Зинфира Фанисовна
4. Sulaymonov J.B., Karimov N. Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599.